


YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING ASOSIY TAMOILLARI



Akbarov Anvar Tojimatovich.
Tilavoldiev Shaxobidin Xoldarovich
Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lif fakulteti
Ubaydullayev Saidakbar Saydaliyevich
Harbiy ta'lif fakulteti kursanti



ELSEVIER



Received: 22-02-2023

Accepted: 22-02-2023

Published: 22-02-2023

Abstract: Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi uzuksiz jarayon bo'lib, u bir-biriga bog'liq siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-mafkuraviy, madaniy-ma'rifiy tadbirdilar majmuasidan iborat. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Qurolli Kuchlarning umumiy harbiy nizomlari, Mudofaa vazirligi, Qurolli Kuchlar tizimidagi idoralarning me'yoriy-huquqiy hujjalatlari asosida olib boriladi.

Keywords: Vatan, harbiy vatanparvarlik, tarbiyalash, maqsadi, yoshlarni, milliy, sadoqatli, kelajagimiz, mustaqilik, ruhida, mudofaa, islohotlar, organlar, yoshlar itifoqi, oliy ta'lif, O'zbekiston Respublikasi.

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi quyidagi tuzilmalarni qamrab oladi:

ta'lif-tarbiya jarayonining eng muhim va asosiy bo'g'ini bo'lgan bolalar bog'chasidan boshlab ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga molik qadriyatlarni, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan maktabgacha ta'lif, umumiy o'rta ta'lif maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lif muassasalari;

ommaviy va harbiy-vatanparvarlik ishlarini amalga oshiradigan davlat va nodavlat tashkilotlari, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari, Qurolli Kuchlar tuzilmalari, mudofaa ishlari boshqarmalari, harbiy qismlar va muassasalar, huquqtartibot organlari, faxriylar kengashlari, O'zbekiston yoshlar ittifoqi tuzilmalari va boshqa tashkilotlar.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari muntazam ravishda tizimli va ilmiy asosda olib borilib, uning samaradorligi uchun jamiyatning barcha sub'ektlari mas'ul hisoblanadi. Xususan, uning asosiy sub'ektlarini quyidagilar tashkil etadi:

davlat va mahalliy hokimiyat organlari;

nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatni institutlari;

oila;

maktabgacha ta'lif, umumiy o'rta ta'lif, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lif muassasalari;

madaniyat va sport muassasalari (teatr, muzey, tarixiy obidalar, kinoteatr, kutubxona va boshqalar);

ommaviy axborot vositalari;

milliy va umumbashariy qadriyatlar, madaniyat, adabiyot, san'at;

madaniyat va istirohat bog'lari;

bolalarni sog'lomlashdirish oromgohlari;

harbiy boshqaruv organlari va boshqalar.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ob'ektlari millati, tili, jinsi, ijtimoiy mansubligidan qat'i nazar, barcha yoshlardan, xususan, quyidagilardan iborat bo'ladi:

maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilaridan;

umumiyl o'rta ta'lim muassasalari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari va oliy ta'lim muassasalari talabalaridan;

uyushmagan yoshlardan;

oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlari va tinglovchilaridan;

harbiy xizmatchilardan;

tashkilot va korxonalarda faoliyat olib borayotgan yoshlardan.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy tamoyillari mazkur jarayonning ilmiy jihatdan asoslangani, uning muntazamligi, ta'lim-tarbiya va amaliyotning o'zaro uyg'unligi, tarixiylik va zamonaviylikning uzviy bog'liqligi bilan ifodalanadi va quyidagilardan iborat bo'ladi:

ilmiylik;

tarixiylik;

aniqlik va tezkorlik;

muntazamlik;

faollik;

ta'lim-tarbiya ishlarining uyg'unligi;

tarbiya jarayonining izchilligi;

harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida erishilgan ijobiy natija va yutuqlarga tayanish tamoyillari.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash usullari – yoshlarda zarur hayotiy bilim, ko'nikma, mahorati va mustahkam irodani, jumladan, yuksak ma'naviy-axloqiy, jangovar ruh va fuqarolik fazilatini shakllantirishga qaratilgan, ularning ongi, ruhiyati va faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan usul va uslublarni anglatadi.

Quyidagilar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy usullaridan hisoblanadi:

ishontirish;

mashq qildirish va mustaqil ishslash;

kuzatish;
rag'batlantirish;
o'rnak ko'rsatish, shaxsiy namuna va boshqalar.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning shakllari. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash turli shakllarda, jumladan, ilmiy, amaliy anjumanlar, savol-javob kechalari, kitobxonlik, elektron o'yinlar, mashhur kishilar bilan uchrashuvlar tarzida va boshqa shakllarda tashkil etiladi va ular ma'naviy-ma'rifiy ishlarning rang-barangligini ta'minlaydi, pirovard natijada jamiyatda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda quyidagi shakllar ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi:

ma'ruza o'qish, savol-javob kechalari, yakka va jamoaviy suhbatlar;

boy hayotiy tajribaga ega bo'lgan harbiy xizmatchi va faxriylar, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida, turli musobaqa va tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritgan shaxslar bilan uchrashuvlar;

ilmiy-nazariy va amaliy konferentsiyalar, seminar-treninglar, muayyan mavzuga bag'ishlangan kechalar, bahs-munozaralar, viktorinalar, davra suhbatlari;

to'plangan ilg'or tajribalarni o'rganish va ommalashtirish;

jamoatchilik fikri va harbiy jamoalardagi ma'naviy-ruhiy muhitni o'rganish;

teleko'rsatuv va radioeshittirishlar, film va multfilmlar, badiiy va musiqiy asarlar, askar qo'shiqlari, OAV, veb-saytlar va elektron o'yinlar, turli gadjetlar va boshqa texnik vositalardan foydalanish;

urush va mehnat faxriylari, jangovar harakatlar ishtirokchilari, davlat va jamoat tashkilotlari, jamg'armalar vakillari bilan uchrashuvlar;

harbiy xizmatga chaqiriluvchilar kuni, mardlik saboqlari va ekskursiyalar.

Davlat yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini tashkil etish, uning natijalarini monitoring qilib borishni ta'minlaydigan asosiy institut hisoblanadi. Davlat yosh avlodning tarbiya jarayonini oilada, maktabgacha ta'lim, umumta'lim maktablari, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida, harbiy xizmat davomida, shuningdek, o'zini o'zi boshqarish organlari, turli davlat va jamoat tashkilotlari miqyosida tashkil etadi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari asosan to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich (3-7 yoshdagilar) atrofdagi olam, Vatan haqida dastlabki tasavvurlar paydo bo'ladigan bosqich hisoblanib, unda oila va maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga turli she'rlar, kuy va qo'shiqlar o'rgatish, multfilm va elektron o'yinlar namoyish etish, rasmlar chizish orqali dunyoni anglash, davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) bilan tanishish asosida ularda ona yurtga muhabbatni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Ushbu bosqichda quyidagilarga alohida e'tibor berish talab etiladi:

harbiy-vatanparvarlik yo'nalishida dastlabki tasavvurlarni shakllantirish maqsadida ertak va hikoyalarni ayтиб berish;

ona Vatanga muhabbat, Vatan himoyasi muqaddas burch ekani bilan bog'liq mavzularagi she'r va qo'shiqlarni yod oldirish;

bolalarning tasavvurini kengaytirishga qaratilgan rasmlar chizdirish va jismoniy qobiliyatini mustahkamlash uchun turli musobaqa va tanlovlardan tashkil etish, shu orqali ularni ma'naviy rag'batlantirish;

harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi multfilmlar va elektron o'yinlar namoyish etish;

harbiy muzeylar va harbiy-vatanparvarlik mavzusi bilan bog'liq madaniyat va istirohat bog'lariga ekskursiyalar uyushtirish.

Ikkinci bosqichda (7-16 yoshdagi bolalar) o'quvchilarning Vatanga muhabbati va sadoqatini mustahkamlash, ona yurt oldidagi farzandlik burchini yuksak mas'uliyat bilan bajarish, ularda Qurolli Kuchlarimizga bo'lgan ijobiy fikrlarni yanada kuchaytirish, harbiy xizmat nufuzini ko'tarish, yoshlarning jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, keng dunyoqarashli, mustaqil fikr yuritadigan barkamol inson sifatida shakllantirish kabi ezgu ishlarga da'vat etiladi.

Bu bosqichda:

zamonamiz qahramonlari haqidagi maqolalar, badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish;

umumiy o'rta ta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik yo'nalishida madaniy-ma'rifiy tadbirlar, tematik kechalar va qo'shiq tanlovlarni tashkil etish, spektakllardan lavhalar namoyish etish;

o'quvchi yoshlari ishtirokida "Vatanimni ko'z qorachig'idek asrayman", "Yurt taqdiri - mening taqdirim" mavzularida insholar tanlovini tashkil etish;

sog'lomlashtirish oromgohlarida "Temurbekning izdoshlari", "O'zbekiston farzandlari botir bo'lur" kabi mavzularda sport musobaqalari va tadbirlar tashkil etish;

harbiy-vatanparvarlik mavzusida badiiy va hujjatli filmlar, multfilmlar namoyish etish va ularning muhokamasini o'tkazish;

darslik va o'quv-metodik qo'llanmalarga buyuk sarkardalarimizning hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlarni kiritish, ularning jasorati, fidoyiligi va qahramonliklari to'g'risida yorqin misollar asosida hikoya qilib berish;

"Temurbeklar maktablari", oliy harbiy ta'lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarning maxsus guruhlari va harbiy qismlarga ekskursiyalar tashkil etish;

"Mard o'g'lonlar" davlat mukofotiga sazovor bo'lgan yurtdoshlarimiz bilan uchrashuvlar o'tkazish, ular erishgan yutuq va natijalarni yoshlari o'rtasida keng targ'ib qilish;

umumiyl o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari ishtirokida "Temurbek vorislari" harbiy-sport o'yinlarini bosqichma-bosqich tashkil etishga alohida ahamiyat qaratiladi.

Uchinchi bosqich (16-18 yoshdagi o'smirlar) yoshlarda Vatanga va uning himoyasi uchun munosib xizmat qilishga ruhan va jismonan tayyorlikni ta'minlashga yo'naltiriladi.

Mazkur bosqichda yuqoridagi vazifalarga qo'shimcha ravishda quyidagi masalalarga e'tibor qaratiladi:

yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, harbiy xizmatga nisbatan ularning mustaqil fikri va ijobjiy qarashlarini shakllantirish, vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirib borish;

o'quvchi yoshlarning nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarini boyitish maqsadida mudofaa ishlari bo'limlari va harbiy qismlar, o'zini o'zi boshqarish organlari, davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda turli sermazmun va qiziqarli tadbirlar tashkil etish;

milliy armiyamiz uchun jismonan baquvvat va ma'nан yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmatning ahamiyati, Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan islohotlar haqida batafsil ma'lumot berib borish.

To'rtinchi bosqich (18-30 yoshdagilar) yoshlarning jismoniy va ma'naviy qobiliyati, yetakchilik ko'nikmalari va intellektual salohiyati, umumiyl va professional malakasini oshirish, ularni o'z ustida muntazam ishlash, sog'lom hayot kechirishga undash va shunga erishishni nazarda tutadi. Ushbu bosqichda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish talab etiladi:

yosh avlodni har tomonlama yetuk, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak, ota-onada va Vataniga sadoqatli insonlar etib tarbiyalashning ahamiyati to'g'risidagi tasavvur va bilimlarni yanada boyitish;

Vatan himoyasiga doimo tayyor bo'lismish va Qurolli Kuchlar safida xizmat burchini o'tayotgan yoshlar bilan faxrlanish, konstitutsion burch va harbiy qasamyodga sodiqlik tuyg'ularini shakllantirish;

harbiy xizmat sharoitlariga moslashish va harbiy ixtisosliklarni puxta egallash, har qanday qiyinchilikka tayyor turish, matonat va jasorat fazilatlarini mustahkamlash, qurol-aslaha, harbiy texnika, davlat va harbiy mulkni asrab-avaylash ko'nikmalarini rivojlantirish;

jangovar tayyorgarlik va harbiy mahoratni muntazam oshirib borish, harbiy jamoada qaror topgan o'zaro yordam va do'stona munosabatlarni qadrlash kabi fazilatlarni shakllantirish;

kitobxonlikni keng targ'ib etish, jamiyatda yuksak ma'naviyatni qaror toptirishda badiiy asarlarning roli va ahamiyatini yoshlar ongiga singdirish;

yoshlarning o'z tanlagan kasbini puxta egallashi va yetuk mutaxassis bo'lib yetishishi uchun yaqindan ko'maklashish;

milliy mafkuramizga zid bo'lgan yot g'oyalarga qarshi tanqidiy qarash va mafkuraviy immunitetni, o'ziga ishonch, hushyorlik va ogohlik tuyg'ularini mustahkamlash;

yoshlarda faol hayotiy pozitsiya va o'zining mustaqil fikr-mulohazalarini aniq bayon eta olish, mas'uliyatni his etish, qat'iy tartib va intizomga rioya qilish fazilatlarini shakllantirish, ularni qat'iyatli bo'lishga o'rgatish.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning samaradorligi, avvalo, bu jarayonning barkamol avlod tarbiyasiga, yoshlarning vatanparvarlik darajasiga qay darajada ijobiy ta'sir etgani bilan belgilanadi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasidagi samaradorlik darajasini aniqlashning muhim sharti yoshlarda vatanparvarlik, harbiy burch, jangovar an'analarga sodiqlik kabi xislatlarning real holatda yanada rivojlanishi va takomillashuviga ijobiy ta'sir etadigan omillarni muntazam ravishda hisobga olib, tahlil etib borishdan iborat.

Harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim mezonlaridan biri – o'sib kelayotgan yosh avlod oldiga jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar bu borada olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning ma'no-mazmuni, shakl va usullari bilan qay darajada mutanosib ekani bilan belgilanadi.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. - T.: O'zbekiston, 1996.
2. O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi "Hurriyat" gazetasi tahririysi, elektron manzil:
3. info@uzhurriyat.uz, ijod@sarkor.uz